MAJBURIY JAMOAT ISHLARI TARIQASIDAGI JAZO VA UNI TAYINLASH MASALALARI

Mo’minova Dilnoza Muhiddin qizi
Buxoro davlat universiteti
Yurisprudensiya kafedrasi o’qituvchisi
e-mail:mominovad99@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda majburiy jamoat ishlari jazosi, mazkur jazoni qo’llash va ijrosini ta’minlash masalalari, voyaga yetgan va voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan tayinlash tartibi, majburiy jamoat ishlarining turlari, qanday holatlar jazoni ijro etishdan bo’yin tovlash hisoblanishi va xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: majburiy jamoat ishlari, jinoyat, jazo, mahkum, jazoning ijrosini ta’minlash, asosiy jazo.

Majburiy jamoat ishlari jazosi - mahkumga moddiy ta’sir o‘tkazish bilan bog‘liq jazo turiga taaluqli bo‘lib, shu bilan birgalikda uni ma’lum bir darajada erkinligini cheklaydi. Mazkur jazo turi mahkumni haq to‘lanmaydigan majburiy jamoat ishlariga jalb qilishdan iborat.

_____ O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O‘RQ-421-sonli Qonuniga asosan kiritilgan.

Mazkur jazoni qo`llash va uning ijrosini ta`minlash maqsadida quyidagi manbalardan foydalaniladi:

1. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi; Jinoyat ijroiya kodeksi

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Sudlar tomonidan jinoyatlar uchun jazo tayinlash amaliyoti” to`g`risidagi qarori. “Majburiy jamoat ***ishlari tariqasidagi jazoni qo`llash bo`yicha” 2026-yil 18-Avgust 16-sonli qarori asosida*** kiritilgan bo`limi;

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 8-maydagi 346- sonli “Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi

haqidagi nizomni hamda Majburiy jamoat ishlari turlarining ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 45¹- va 82¹-moddalariga ko`ra: mazkur turdagi jazo voyaga yetganlarga va voyaga yetmaganlarga nisbatan alohida tartibda va muddatda tayinlanadi.

Voyaga yetganlarga:

- mehnatga layoqatli shaxsga nisbatan;
- bir yuz yigirma soatdan to`rt yuz sakson soatgacha bo`lgan muddatga;
- jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olgan holda;
- olti oy davomida kuniga to`rt soatdan ko`p bo`lmagan vaqtda, mahkumga bog‘liq bo‘lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, bir yilgacha bo‘lgan muhlatda kuniga to`rt soatdan oshmasligi kerak.

Voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan esa:

- faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan;
- oltmish soatdan ikki yuz qirq soatgacha bo‘lgan muddatga (haftasiga 3 kundan oshmasligi kerak);
- voyaga yetmaganlarning sog‘lig‘iga va ma’naviy jihatdan rivojlanishiga zarar yetkazmagan, o‘qish jarayonini buzmagan holda;
- olti oy davomida kuniga ikki soatdan oshmasligi, mahkumga bog‘liq bo‘lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, bir yilgacha bo‘lgan muhlatda kuniga ikki soatdan oshmasligi kerak.

Majburiy jamoat ishlari quyidagilarga nisbatan qo'llanilmaydi:

Pensiya yoshiga yetgan shaxslarga;

O'n olti yoshga to'lmagan shaxslarga;

Homilador ayollarga;

3 yoshga to’lmagan bolasi bor ayollarga va uch yoshgacha bo’lgan bolani farzandlikka olgan yoki unga nisbatan vasiy bo’lgan shaxslarga;

Harbiy xizmatchilarga;

Birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo’lgan shaxslarga;

Chet el fuqarolariga va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan fuqarolarga nisbatan qo'llanilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-maydagi 346-sonli "Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi haqidagi nizomni hamda Majburiy jamoat ishlari turlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida ushbu jazo turlari ko`rsatilgan:

Majburiy jamoat ishlari turlarining ro'yxati:

1.Shaharlar, tumanlar, posyolkalar, dam olish zonalari, sport va bolalar maydonchalari, tarixiy-arxitektura yodgorliklari, qabristonlarni obodonlashtirish;

2. Qurilish-montaj ishlari;

3. Yuk orttir-tushirish ishlari;

4. Sog'liqni saqlash tizimidagi ishlar;

5.Xalq ta'lim tizimidagi ishlar;

6.Agrosanoat kompleksidagi mavsumiy ishlar;

7. Meva –sabzavot bazalaridagi ishlar;

8.Ikkilamchi xomashyolarni tayyorlash va topshirish bo'yicha ishlar.

Jinoyat ijroiya kodeksining 6^1-bobiga ko'ra: Majburiy jamoat ishlarini o`tash joylari inspeksiya tomonidan, mahalliy davlat hokimoyat organi taklifiga ko`ra belgilanadi . Majburiy jamoat ishlarini o`tash joylari inspeksiya tomonidan, mahalliy davlat hokimoyat organi taklifiga ko`ra belgilanadi. Majburiy jamoat ishlariga hukm qilingan shaxs hukm inspeksiya kelib tushgan kundan e`tiboran o`n kundan kechiktirmay jalb qilinadi. Mahkumning asosiy ish joyidan navbatdagi har yilgi mehnat ta`tilning berilishi jazoning ijrosini to`xtatib turmaydi.

Jazo soatlar bilan hisoblanadi. Mahkum o`taydigan majburiy jamoat ishlarining vaqti haftasiga o`n ikki soatdan kam bo`lmasligi lozim.

Voyaga yetmagan mahkum o`taydigan majburiy jamoat ishlarining vaqti dam olish kunlari, ishda, o`qishda band bo`lmagan kunlar uch soatdan, boshqa kunlar ikki soatdan,biroq haftasiga uch kundan oshmasligi kerak.

Quyidagilar jazoni ijro etishdan bo'yin tovlash hisoblanadi:

1. 10 kun ichida hisobga turmasa, jazoni o`tashdan bo`yin tovlash maqsadida yashirinsa;

2. Yozma ogohlantirish olganidan so`ng, o`ziga bog`liq bo`lmagan holatlar bo`lmasa-da, bir oy davomida ikki martadan ko`p ishtirok etmaslik;

3.Yozma ogohlantirish olganidan so`ng, jazoni o`tash joyidagi tashkilotning ichki mehnat tartibi qoidalarini bir oy davomida uch martadan ko`p buzsa.

Belarusiya Respublikasi Jinoyat kodeksining 49-moddasiga ko`ra: Jamoat ishlari **oltmish soatdan ikki yuz qirq soatgacha;** Ta'lim olgan yoki doimiy ish joyiga ega bo'lgan mahkumlar o'qish yoki asosiy ishdan bo'sh vaqtlarida kuniga **to'rt soatdan ko'p bo'lmagan** vaqt davomida jamoat ishlarini bajaradilar. **O'qimagan va doimiy ish joyiga ega bo'lmagan** mahkumlar, ularning roziligi bilan jamoat ishlarini kuniga to'rt soatdan ortiq, lekin sakkiz soatdan ko'p bo'lmagan muddatga o'tashlari mumkin.

Sudning xohishiga ko'ra, jamoat ishlari **jarima** yoki **muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish** uchun **qo'shimcha jazo sifatida tayinlanishi** mumkin.

1) o'n olti yoshga to'lmagan shaxslar; 2) umumiy pensiya yoshiga etgan shaxslar; 3) homilador ayollar; 4) ***ota-ona ta'tilida bo'lgan shaxslar;*** 5) I va II guruh nogironlari; 6) harbiy xizmatchilar; 7) chet el fuqarolari va Belarus Respublikasida **doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;** 8) sil kasalligining faol shakli bo'lgan shaxslar.

Agar shaxs jamoat ishlarini o`tash davrida yuqoridagi nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelsa, sud jazoni ijro etish zimmasiga yuklangan organning taqdimnomasiga ko`ra shaxsni jazodan ozod qiladi. Agar mahkum qasddan jamoat ishlari tarzida jazoni o'tashdan bosh tortsa, sud jazoni ijro etish uchun mas'ul organning iltimosiga binoan jazoni ozodlikdan mahrum qilish yoki cheklash bilan almashtirishi mumkin. **O'n ikki soatlik jamoat ishlari bir kunlik qamoq** jazosiga teng.

Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 67-moddasiga ko`ra, jamiyat manfaati uchun haq to'lanmaydigan ish 60 dan 240 soatgacha tayinlanadi va kuniga 2 dan 4 soatgacha, asosiy faoliyat yoki o'qish bilan band bo'lmagan mahkum bo'lsa, uning iltimosiga binoan yoki uning roziligi bilan kuniga 8 soatgacha belgilanadi.

Mahkum jamiyat manfaati uchun haq to'lanmagan ishdan qasddan qochgan taqdirda, ushbu jazo jamiyat manfaati uchun 4 soatlik to'lanmagan ish uchun 1 kunlik qamoq jazosi miqdorida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtiriladi. Bunday holda, qamoq muddati ham 3 oydan kam bo'lishi mumkin.

Jamiyat manfaati uchun to'lanmagan mehnatni shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchilar va 16 yoshga to'lmagan shaxslarga qo'llash mumkin emas.

Jamiyat manfaati uchun haq to'lanmagan ishlar sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab hisoblangan 18 oydan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Kontrakt xizmatchilariga; 8 yoshdan kichik bolasi bor ayollarga, I va II darajali nogironlarga, 16 yoshga to`lmagan shaxslarga, pensiya yoshiga yetgan shaxslarga qo`llanilmaydi. Muddatli harbiy xizmatchilar majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoni o`zlarining harbiy qismida o`taydilar.

Qirg`iziston Respublikasi Jinoyat kodeksining 61-moddasiga ko`ra, jamoat ishlari qirqdan uch yuz soatgacha davom etadi. Mahkumlar asosiy ish va o'qishdan bo'sh vaqtlarida kuniga to'rt soatdan ko'p bo'lmagan, ishlamaydiganlar esa kuniga sakkiz soatdan ko'p bo'lmagan vaqt davomida bepul xizmat qilishadi. Jamoat ishlari harbiy xizmatchilar, I va II guruh nogironlari deb tan olingan shaxslar, homilador ayollar, ota-ona ta'tilida bo'lgan ayollar va erkaklar, pensiya yoshiga etgan shaxslar va jamoat ishlari muddati tugashidan oldin pensiya yoshiga etgan shaxslarga tayinlanmaydi.

Agar mahkum hukm qonuniy kuchga kirganidan yoki jamoat ishlaridan bo 'yin tovlaganidan keyin o' n kun ichida probatsiya organiga kelmagan bo 'lsa, sud probatsiya organining taqdimnomasiga ko' ra jazoni ushbu Kodeksning 62, 64, 65 va 67-moddalarida nazarda tutilgan muddatlarda ozodlikni cheklash, axloq tuzatish

ishlari, jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirishi mumkin. Shu bilan birga, axloq tuzatish ishlari, erkinlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish muddati bir yilgacha belgilanadi.

Xulosa o'rnida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

Amaldagi qonunchiligimizda mazkur jazoni vijdonan bajargan shaxslarga nisbatan jazodan muddatidan oldin ozod qilish masalalari yoriltilmagan, imtiyozlar berilmagan.

Mahkumga nisbatan majburiy jamoat ishlari jazosining turi sud tomonidan tayinlanilishi masalasi muhokama qilinishi kerak.

Jazoning muddatini belgilash faqat o`qish va ish joyiga ega mahkumlar doirasida amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 36- bet.

2. Ochilov X. R., Xaydarov Sh. D., Shamsidinov Z. Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism). O'quv qo'llanma – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 172 bet

3. M. Usmonaliyev Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. —T.: "Yangi asr avlodi", 2010, – 664 b.

4. *Павлухин А.Н.* Дополнительные виды наказаний: уголовно-правовой и уголовно-исполнительный аспекты: Монография.– М.: ЮНИТИ, 2007. – 245 Б.

5. *Салаев Н.С., Абдурасулова Қ.Р., Турғунбоев Э.О.* Жарима ва ахлоқ тузатиш ишлари жазолари: жиноят-ҳуқуқий ва жиноят-ижроия ҳуқуқий жиҳатлари. Монография. – Т.: ТДЮУ, 2016. – 144 б.

6.*Старков О.В., Милюков С.Ф.* Наказание: уголовно-правовой и криминопенологический анализ. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 560 Б.